

**MAHSULOT YETKAZIB BERISH TO'G'RISIDA**  
**SONLI SHARTNOMA**

2022-yil 9 -yanvar

Farg'ona tumani

“Chorvador” F/X (bundan buyon matnda “Yetkazib beruvchi” deb nomlanadi) nomidan Nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari **Sh.Axmedov** bir tomondan va **Maktabgacha ta'lim bo'limi** (bundan buyon matnda “Sotib oluvchi” deb yuritiladi) nomidan nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari **G.Karimova** ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

**1. SHARTNOMA PREDMETI.**

1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha “Yetkazib beruvchi” shartnomaning 1.2.bandida ko'rsatilgan mahsulotni belgilangan muddatlarda “Sotib oluvchi”ga sotishni, “Sotib oluvchi” mahsulotni qabul qilishni va haqini o'z vaqtida to'lashni o'z zimmasiga oladi.

1.2. “Yetkazib beruvchi” jadvalda ko'rsatilgan quyidagi mahsulotlarni sotib oluvchiga sotishni o'z zimmasiga oladi.

	<i>Mahsulot nomi</i>	<i>O'lchov birligi</i>	<i>Miqdori</i>	<i>Narxi</i>	<i>Mahsulot qiymati</i>	<i>QQS</i>	<i>Summa</i>
1	<i>Sut</i>	<i>litr</i>	<i>15231</i>	<i>4500</i>	<i>68539500</i>		<i>68539500</i>
2	<i>Smetana</i>	<i>kg</i>	<i>456</i>	<i>8000</i>	<i>3648000</i>		<i>3648000</i>
3	<i>Tvorog</i>	<i>kg</i>	<i>1648</i>	<i>12000</i>	<i>19776000</i>		<i>19776000</i>
4	<i>Pishloq</i>	<i>kg</i>	<i>857</i>	<i>22000</i>	<i>18854000</i>		<i>18854000</i>
5	<i>Slivochnoe maslo 82,5%</i>	<i>kg</i>	<i>2057</i>	<i>35000</i>	<i>71995000</i>		<i>71995000</i>
6	<i>Go'sht muzlatilgan (1-toifa)</i>	<i>kg</i>	<i>3000</i>	<i>55000</i>	<i>165000000</i>		<i>165000000</i>
	<i>jami</i>						<i>347812500</i>

1.3. Shartnomaning umumiy summasi: **347812500** (Uch yuz qirq yetti million sakkiz yuz o'n ikki ming besh yuz ) so'm.

**2. TARAFLARNI HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI.**

2.1. “Yetkazib beruvchi”ning huquqlari:

a) Ushbu shartnomani 5.2 bandida ko'rsatilgan muddatlarda hisob-kitoblar amalga oshirilishini “Sotib oluvchi”dan talab qilish;

b) "Sotib oluvchi" shartnoma shartlarini buzgan holda mahsulotni qabul qilmasa yoki qabul qilishdan asossiz ravishda bosh tortsa, "Yetkazib beruvchi" shartnomani bajarishdan bosh tortish va zararni qoplashni talab qilishga;

v) "Sotib oluvchi" tomonidan mahsulot uchun hisob-kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilmaganda yetkazilgan zararni qoplashni undan talab qilishga haqlidir;

g) "Sotib oluvchi" shartnomani 5.2. bandida belgilangan majburiyatni bajarmasa, "Yetkazib beruvchi" mahsulotni o'z ixtiyoriga ko'ra sotish va ushbu sotishdan ko'rilgan zararni "Sotib oluvchi"dan talab qilishga haqlidir;

2.2. "Yetkazib beruvchi"ning majburiyatlari:

a) Shartnomada ko'rsatilgan mahsulotni "Sotib oluvchi" tomonidan berilgan buyurtmada ko'rsatilgan miqdor va muddatlarda ombordan berish(sotish);

b) Yetkazib berilayotgan mahsulotni sifati va navi standartlar, texnik shartnomaga mos kelishini ta'minlash;

v) Mahsulotga to'lov yoki tovar-transport hujjatlarini mahsulot qabul qilingan kuni rasmiylashtirib berish;

g) "Yetkazib beruvchi" mahsulotni yetkazib berolmay qolgan qismini ushbu holat aniqlangandan keyin 10 kun ichida yetkazib berish lozim;

d) Agar "Yetkazib beruvchi" shartnomaning 1.2. bandida ko'rsatilgan majburiyatlarni uzrli sabablarga ko'ra bajara olmasa, joriy oyning 15-sanasigacha "Sotib oluvchi"ga sabablarini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish;

e) Mahsulot sotish bo'yicha shartnomaviy rejalar bajarilmagan holatlarda, "Sotib oluvchi"ga to'langan mablag'lar bo'yicha qarzdorlikni qoplash;

2.3. "Sotib oluvchi"ning huquqlari:

Mahsulotni sifati va navi standartlar, texnik shartlarga mos kelishni "Yetkazib beruvchi"dan talab qilish;

"Yetkazib beruvchi"dan ushbu shartnomada ko'rsatilgan mahsulotni buyurtmaga asosan o'z vaqtida ushbu shartnomada ko'rsatilgan manzilgohda topshirishni talab qilish;

Zarur sifatga muvofiq bo'lmagan mahsulot yetkazib berilganda "Sotib oluvchi" o'z xohishiga ko'ra "Yetkazib beruvchi"ga mahsulotni qaytarish;

Zarur sifatidagi mahsulotni "Sotib oluvchi" o'z hisobidan yetkazib beruvchiga qayta yetkazish;

Muddatlar buzilgan yoki zarur sifatga muvofiq bo'lmagan holda yetkazib berilgan mahsulotni qabul qilishni rad etish.

"Yetkazib beruvchi"dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan zararni, boy berilgan foydani talab qilishga haqlidir.

2.4. "Sotib oluvchi"ning majburiyatlari:

a) Mahsulot qabul qilish va ushbu shartnomada belgilangan muddat va tartibda mahsulot uchun tegishli haqni oldindan 30 % miqdorda to'lab beradi va

mahsulot yetkazib berilgandan so'ng 70 % miqdorini to'lab berishni o'z zimmasiga oladi.

### **3. SHARTNOMANING BAJARILISHI.**

3.1. Majburiyatlar mazkur shartnoma shartlari va qonun hujjatlari talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak. Agar taraflar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlar bajarilishi ta'minlansa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi;

3.2. Ushbu shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi mahsulotni qabul qilish bo'yicha yakuniy hujjatlar tuzilgan sana "Yetkazib beruvchi" tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi. Yakuniy hisob-kitoblarni to'lov hujjatidagi bank muassasasi shtampida ko'rsatilgan sana mahsulotga haq to'lash bo'yicha "Sotib oluvchi" tomonidan majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.

3.3. Olinadigan turkumdagi mahsulot uchun tegishli bo'lgan haq "Yetkazib beruvchi"ning bank hisob raqamiga kelib tushganidan so'ng, "Yetkazib beruvchi" tomonidan ushbu shartnoma va shartnoma asosida berilgan buyurtmada ko'satilgan miqdordagi mahsulotni "Sotib oluvchi"ga tegishli yuk xati asosida yetkazib beradi.

3.4. Shartnomaning 1.2. bandida ko'rsatilgan miqdordagi mahsulot berilgan buyurtmalar asosida yetkazib beriladi.

3.5. Mahsulotni yetkazib berish uchun buyurtma tegishli turkumlarini yetkazib berishning mo'ljallanayotgan sanasidan chopar orqali, pochta orqali yoki boshqacha tarzda beriladi. Buyurtmani chopar orqali qabul qilishda "Yetkazib beruvchi"ning xodimi "Sotib oluvchi"da keladigan nusxaga sanani ko'rsatgan holda u qabul qilganligi haqida belgi qo'yadi. "Sotib oluvchi" ilgari berilgan buyurtmani bekor qilishga yohud mahsulotni tegishli turkumlarini yetkazib berish sanasini o'zgartirishga haqlidir, bu haqida "Yetkazib beruvchi"ni buyurtmada ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida 5 kun oldin xabardor qiladi.

3.6. "Sotib oluvchi" mahsulotni qabul qilishda, uni soni va sifatini joyida tekshirib ko'rishi shart, mahsulot qabul qilinib yuklashgandan keyin, uning saqlanishiga "Sotib oluvchi"ning o'zi javob beradi.

### **4. MAHSULOT SIFATI.**

4.1. "Yetkazib beruvchi" yetkazib beriladigan mahsulotni sifati davlat stantarti talablariga javob berishini ta'minlaydi, mahsulotni tegishli sifat sertifikatlari bilan yetkazib beradi.

4.2. Mahsulotni sotib olgandan so'ng uning sifati bo'yicha javobgarlik sotib oluvchi zimmasiga o'tadi.

## **5. MAHSULOT BAHOSI VA HISOB-KITOB QILISH TARTIBI.**

5.1. Mahsulot uchun hisob-kitoblar pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. 5.2. Mahsulot yetkazib berishga tayyor bo'lganligi to'g'risida "Yetkazib beruvchi" "Sotib oluvchi"ni yozma ravishda xabardor qilgandan so'ng, "Sotib oluvchi" yetkazib beriladigan turkum mahsulot bahosini 30 % miqdorda oldindan haqini to'lab beradi va mahsulot yetkazib berilgandan so'ng 70 % miqdorini to'lab berishni o'z zimmasiga oladi.

5.3. Agar yetkazib berilayotgan mahsulotga (xom ashyo, yordamchi materiallar, elektr energiya, gaz va hokazo) ketadigan sarf-xarajatlar narxi o'zgargan hollarda, ushbu mahsulotning narxi o'zgartirilishi mumkin.

5.4. Mahsulotlar uchun narx hududiy bozorlar tomonidan taqdim etilgan narxlar doirasida belgilanadi va ma'lumot asos qilib olinadi.

5.5. Agar davlat nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish va taftish ishlari natijasida etkazib berilgan mahsulotlar narxlari yuqori deb topilsa, ushbu farq "Yetkazib beruvchi" hisobidan qoplanadi.

5.6. Shartnoma summasidan ortiq mahsulot etkazib berilganda ("Yetkazib beruvchi" ogohisiz bajarilganda) hisob-kitob "Sotib oluvchi" tomonidan amalga oshirilmaydi.

## **6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.**

6.1. Mahsulot berish muddatlari kechiktirib yuborilganligi, to'liq yetkazib berilmaganligi uchun "Yetkazib beruvchi" "Sotib oluvchi"ga kechiktirilgan har bir majburiyat bajarilmagan qismining 0.5 % miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan mahsulot summasining 50 % dan oshmasligi lozim.

6.2. Mahsulot sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan mahsulot yetkazib berganligi uchun "Yetkazib beruvchi" "Sotib oluvchi"ga ushbu mahsulot bahosining 5 % miqdorida jarima to'laydi.

6.3. But bo'lmagan mahsulot yetkazib berilganligi uchun "Yetkazib beruvchi" "Sotib oluvchi"ga yetishmayotgan qismlar qiymatini qo'shgan holda, but bo'lmagan mahsulot qiymatining 5 % miqdorida jarima to'laydi.

6.4. Yetkazib berilgan mahsulotni tanlab olmaganligi yoki tanlab olishni asossiz rad etganligi uchun "Sotib oluvchi" "Yetkazib beruvchi"ga tanlab olinmagan yoki muddatida olinmagan mahsulot bahosining 5% miqdorida, tez buziladigan mahsulot uchun esa 5 % miqdorida jarima to'laydi.

6.5. Shartnomada ko'rsatilgan mahsulot uchun o'z vaqtida hisob-kitobni amalga oshirmaganlik uchun "Sotib oluvchi" "Yetkazib beruvchi"ga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun keltirilgan to'lov summasini 0.5 % miqdorida penya

to'laydi, bunda penya summasini kechiktirilgan to'lov summasining 50% dan ortiq bo'lmasligi kerak.

## 7. FORS-MAJOR VA JAVOBGARLIKDAN OZOD ETISH.

7.1. Taraflardan biri shartnomani yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar va hokazo) tufayli bajarmagan yoki lozim darajada bajarilganligini (fors-major holatini) isbotlasa, javobgar bo'lmaydi.

## 8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI.

8.1. Ushbu shartnomani bajarilishi yuzasidan kelib chiqadigan nizo va kelishmovchiliklar tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida hal etiladi.

8.2. Taraflar o'zaro kelisholmagan taqdirda, nizolar iqtisodiy sud tomonidan hal qilinadi.



## 9. SHARTNOMANI BOSHQA SHARTLARI.


9.1. Ushbu shartnoma tomonlar imzolagan vaqtdan boshlab kuchga kiradi, shartnomaning muddati 2022-yil 31-dekabrgacha to'la ijro etilgunga qadar amalda bo'ladi.

9.2. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda kiritiladi va har ikkala tarafning vakolatli shaxslari tomonidan imzolanadi.

9.3. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuziladi.

## 10. TOMONLARNING REKVIZITLARI.

“Yetkazib beruvchi”	“Sotib oluvchi”
<p>“Chorvador” F/X</p> <p>Farg'ona tumani Chimyon qishlog'i</p> <p>X/r 20208000003757399001</p> <p>MFO: 00493 INN: 200197525</p> <p>Milliy bank ATB Farg'ona</p> <p>Indeks:</p> <p>QQS kodi:</p> <p>Tel: 97-966-65-35</p> <p> Sh. Axmedov</p>	<p>Farg'ona tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi</p> <p>Farg'ona tumani Vodil qishlog'i Dilkusho ko'chasi 8-uy</p> <p>Tel: (73)-353-10-86</p> <p>Sh/r 100022860302337091100251039</p> <p>STIR 305153676</p> <p>X/R 23402000300100001010</p> <p>Bank nomi : Markaziy bank Toshkent sh</p> <p>MFO 00014; STIR 201122919</p> <p> G. Karimova</p>



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDAGI HUQUQIY  
XULOSA  
№DG21033846**

1. Loyihaning turi: Shartnoma
2. Loyihaning nomi: Maxsulot yetkazib berish to'g'irisida
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:  
Farg'ona tumani maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 2022-yil 8-yanvar kuni ishlab chiqilib, dasturga kiritilgan.  
Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra

**XULOSA:**

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Yuridik xizmat ko'rsatish  
markazi bosh yuriskonsulti:**



**A.Mirzayev**

2022-yil 8-yanvar